

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING
QARORI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AVTOMOBIL TRANSPORTIDA YUKLARNI
TASHISH QOIDALARIGA QO'SHIMCHALAR KIRITISH TO'G'RISIDA**

Avtomobil transportida yuklarni tashish qoidalarini yanada takomillashtirish, shuningdek, yuklarni tashishda ekologik xavfsizlikni oshirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 1-avgustdagi 213-son **qarori** (O'zbekiston Respublikasi QT, 2014-y., 8-son, 77-modda) bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasida avtomobil transportida yuklarni tashish qoidalariga quyidagi mazmundagi 88¹ va 88² - bandlar qo'shilsin:

“88¹. Qurilish materiallarini, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini, sanoat va oziq-ovqat tovarlarini, shuningdek, boshqa to'kiladigan (issiq asfalt, yirik gabaritli va og'ir yuklardan tashqari) yuklarni ochiq avtotransport vositalarida tashish yukni majburiy tartibda brezent yoki boshqa qalin material bilan qoplagan holda amalga oshiriladi.

88². Avtotransport vositalarining qurilish obyektlaridan kuzovni va avtotransport vositalarining g'ildiraklarini yuvmasdan umumiy foydalaniladigan yo'llarga chiqishiga yo'l qo'yilmaydi”.

2. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining birinchi o'rinnbosari — “O'zbekiston temir yo'llari” AJ boshqaruvi raisi A.J. Ramatov hamda O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vaziri P.R. Bobojonov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV

Toshkent sh.,
2018-yil 29-may,
395-son

(Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.05.2018-y., 09/18/395/1282-son)